
TASHABBUSLI BYUDJET: Maktabgacha ta'lim tashkilotining yozgi ayvonlari yangilanmoqda

"Tashabbusli byudjet" orqali ko'plab mahallalarning infratuzilmasi yaxshilanmoqda, korxonalar va tashkilotlarning moddiy-texnik bazasi yaxshilanmoqda, shuningdek ta'lim muassasalari bo'yicha tushgan takliflar ham g'olib bo'lib, qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

28-DMTTning yozgi ayvonlari avariya holatida bo'lib talabga javob bermas edi. Tarbiyalanuvchilar issiq kunlarda ham xonada bo'lishar edi. Mazkur bog'chaga besedkalar qurish bo'yicha tushgan taklif tashkilot xodimlari, "Mustaqillik" mahallasi fuqarolari hamda ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Hozirda quruvchilar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotining 4 ta yozgi ayvonlari qurilib, pardoqlash ishlari olib borilmoqda. Mazkur ishlar uchun 300 mln. so'mga yaqin mablag' sarf etilishi belgilangan.

Mustaqilligimizning 32 yilligi tantanalari arafasida yozgi ayvonlar ta'lim muassasasi xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari foydalanishi uchun topshiriladi.

2023-08-17 14:17:38